



## MILLIY CHOLG'ULARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

**Safarov Nusrat G'ayratovich**

Abdurauf Fitrat nomidagi Buxoro maqom  
san'atiga ixtisoslashtirilgan maktab-internati  
Oliy toifali o'qituvchisi

**Kudratova Malikajon Asatullaevna**

Abdurauf Fitrat nomidagi Buxoro  
maqom san'atiga ixtisoslashtirilgan  
maktab-internati o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8017296>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-June 2023 yil

Ma'qullandi: 05-June 2023 yil

Nashr qilindi: 08-June 2023 yil

### KEY WORDS

*tarix, manbaa, musiqa, cholg'u,  
ijro, ustoz, hunarmand, an'ana,  
shogird*

### ABSTRACT

*Tarixiy manbaalarda yozilishicha cholg'u ijrochiligi san'atining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundan iborat bo'lganki, har bir cholg'u ijrochisi nafaqat bir nechta turdagi musiqa asboblari chala olgan, balki ularning o'zlari yaxshigina xonanda bo'lib, musiqa ham bastalaganlar. Natijada soz yasovchi hunarmandlarning musiqaviy faoliyati rivojlanib maxsus musiqa asboblari yasash ustaxonalari paydo bo'lishiga olib kelgan.*

Ustoz – shogird an'analari qaror topib rivojlangan. Musiqa san'atining asosiy ko'rinishlari shakllanib, cholg'u asboblari yangi namunalari kashf etilishi ham o'sha uzoq davrlardan boshlangan.

Markaziy Osiyo musiqa madaniyatiga xos cholg'ulardagi juda katta xilma-xillik uzoq o'tmish tarixiy yodgorliklarida ham namoyon bo'ladi. Hozirgi musiqa san'atimizda keng ishlatilib kelinayotgan karnay, surnay, nay, tanbur, doyra kabi cholg'ular shular jumlasidandir. Eng muhimi qadimiy yodgorliklarda aks ettirilgan an'anaviy cholg'ular deyarli o'zgarishsiz bizgacha etib kelgan. Masalan, to'y tomoshalar ko'rki bo'lgan karnay Misrning qadimiy mis karnayiga o'xshab ketsa, doyra esa o'z tuzilishi va chalinishi bilan eramizdan ming yil oldingi haykalchalarda tasvirlangan musiqachilar qo'lidagi cholg'udan farq qilmaydi. Ayni vaqtda biz torli cholg'ularda o'zgarishlar borligini ham guvohi bo'lamiz. Jumladan, eramizdan oldingi bir minginchi yillarga mansub tanbursimon cholg'uning hozirgi davrda SHarq mamlakatlarida doimiy ishlatilayotgan turi, o'z navbatida, uzoq asrlar davomida doimiy takomillashuvlar natijasida gavdalanadi. Ammo shunday uzoq rivojlanish davrida bu cholg'u ham turli mamlakatlarda turlichadir. Hozir tanbur nomi bilan yuritiladigan bu uzun dastali **lyutnya** sozi Eron, Afg'oniston, Turkiya va Markaziy Osiyo xalqlari musiqa san'atida munosib o'rin olgan nusxalari ham deyarli turli shaklda ekanligi ma'lum. Tanburning O'zbekiston va Tojikistonga xos setor, chortor, panjtor, shashtor kabi turlarining mavjudligi hamda ularni har bir professional ijrochilar tomonidan ijro etilishi ham alohida e'tiborga sazovordir. Hozirda O'zbekiston va O'rta Osiyoning boshqa respublikalari musiqa ijrochiligida ishlatilayotgan dutorning ham tarixi alohida diqqatga sazovordir. Atoqli rus musiqashunos olimi, o'zbek musiqasi to'g'risidagi tadqiqotlar muallifi V.M.Belyaev (1882-1968)ning "Музыкальные

instrumenty Uzbekistana”<sup>1</sup> asarida o‘zbek xalqi turmushida ishlatilib kelinayotgan barcha cholg‘u sozlarining cholg‘ushunoslik tizimida dutorning tutgan o‘rni, ifodaviy imkoniyatlari, ijrodagi ta’sir kuchi va boshqa tomonlariga atroflicha ta’rif beradi. SHuningdek, u o‘zining “Rukovodstvo dlya obmera narodnykh muzykalnix instrumentov”<sup>2</sup> asarida esa o‘zbek cholg‘u asboblarini organologik tomonlarini o‘rganib, ularning tuzilishi, cholg‘u qismlarining o‘lchovi, bir-biriga mutanosibligi, har bir cholg‘u sozi qismlarining nomlanishi hamda yasalishiga oid fikrlarni bildiradi. V.M.Belyaevning bu ikki kitobida o‘zbek sozlari haqida ancha mukammal ma’lumotlar berilgan bo‘lsa-da, ular hozirgi musiqa ijrochilarini qoniqtira olmaydi, chunki unda keltirilgan xususiy mulohazalar musiqa ijrochiligi tajribasida sinab ko‘rilmagan, xulosa va boshqa dalillar bilan asoslanmagan.

Atoqli shoir, musiqashunoslik ilmining bilimdoni, davlat arbobi, professor A.Fitrat o‘zining “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi”<sup>3</sup> asarida tanbur, rubob, dutor, qo‘biz, g‘ijjak, nay va boshqa milliy cholg‘ularning tarixi, rivojlanish davrlari, parda tuzilishlari va ijro imkoniyatlari haqida birinchilardan bo‘lib ilmiy asoslab beradi. SHuningdek, taniqli musiqashunos olim F.Karomatov o‘zining “Uzbekskaya instrumentalnaya muzyka”<sup>4</sup> kitobida esa barcha o‘zbek xalq cholg‘ularining tarixi, yasalishi, ijro imkoniyatlari, musiqa ijrochiligida tutgan o‘rni, cholg‘ularda ijro etiladigan asarlarning musiqiy shakllarini ochib beradi.

CHolg‘ularning organologik sifatlari, mazkur cholg‘u musiqasining turlarida o‘z ifodasi namoyon bo‘ladi. CHunki har bir cholg‘u o‘zining madaniy hayotdagi o‘rni, sozlanishi va cholg‘u musiqasi o‘rtasidagi o‘zaro ijrochilik muhiti, asarning mazmuni, shakli, yoqimliliigi, jozibaligi kabi omillarda o‘z aksini topadi. Bu omillar har bir cholg‘uning o‘ziga xos tarovatini anglashda va uning organologik tomonlarini yoritishda juda muhim rol o‘ynaydi.

Ma’lumki, o‘zbek xalq musiqa merosi ham boshqa ko‘pgina SHarq xalqlari musiqasi singari, folklor hamda og‘zaki an’anadagi professional musiqa turlariga bo‘linadi. CHolg‘ular ham o‘z navbatida, faqat folklor janrlari ijrochilari qo‘lida hamda professional musiqa ijrochilari tomonidan ishlatiladigan turlarga bo‘linganligini ko‘ramiz. Tarixiy yodgorliklarga, jumladan, musiqiy risolalar va boshqa manbaalarda esa deyarli mohir ijrochi ustoz-sozandalar ishlatgan cholg‘ular o‘z aksini topgan. Lekin cho‘ponlar tomonidan yoki keng omma orasida folklor musiqalari ijro qilinib kelingan tuzilishi jihatdan oddiygina bo‘lgan ko‘pgina cholg‘ular jumladan, qadimiy g‘arovnay, suyak yoki yog‘ochdan yasalgan chanqovuz va shunga o‘xshagan sozlar tasviri (yoki tasnifi) san’at yodgorliklari hamda maxsus musiqa risolalarida juda kam uchramiz. Bunday cholg‘ularning ko‘pchiligi biz uchun noma’lum qolganligi ham ehtimoldan xoli emas.

XIX asrning 50 yillarida o‘zbek musiqa cholg‘ularining har birini mukammal o‘rgangan folklorshunos, Sirdaryo viloyati musiqa xorining kapelmeystri, skripkachi, bastakor A.F.Eyxgorn (1844 yil Avstriyaning Lasnits shaxrida tug‘ilgan, 1870-1883 yillarda Toshkentda yashab, ijod etgan) o‘sha vaqtda mavjud barcha o‘zbek xalq cholg‘u asboblarini to‘plab, ularni quyidagicha ta’riflaydi: ikki torli, yarim nok shaklidagi dutorni lyutnyalar guruhiga, g‘ijjakni torli kamonchali cholg‘ular guruhiga, ruboblarni esa mandalina guruhiga kiritgan. U surnayni qamish puflagichli qadimiy damli cholg‘u, qo‘shnayni qo‘sh qamishli fleyta (Eyxgornning

<sup>1</sup> Беляев В.М. «Музыкальные инструменты Узбекистана» М., Гос. муз.изд 1933

<sup>2</sup> Беляев В.М. «Руководство для обмера народных музыкальных инструментов» М., Гос.муз.изд 1931.

<sup>3</sup> Фитрат А. “Ўзбек классик музикаси ва унинг тарихи”. Т., “Фан” 1993. 26-34 бетлар

<sup>4</sup> Қаранг: Кароматов Ф. «Ўзбекская инструментальная музыка» Т., 105-154 бетлар. 1972.

ta'kidlashicha, fleyta ya'ni qo'shnaylarda o'zbeklar qo'shiqqa jo'r bo'lishgan), karnayni esa tantanali marosimlarda, harbiy yurishlarda xabar beruvchi vositachi deb ta'riflaydi.

Doyra (chirmanda)ni qadimiy misrliklarning qo'l litavralarini eslatuvchi chetlarida xalqalari bo'lgan nag'oracha (tanburin), nag'orani ikki kichik sapol xurmacha va ikki urma tayoqchadan iborat safoilni shiqildoqlar guruhiga, changni qizlarning sevimli cholg'usi sifatida, tanbur uch torli noxunli musiqa cholg'usi, nay, sarboz nay Misrning yodgorliklarida uchragan cholg'ular deb ta'rif beradi<sup>5</sup>.

XIX asr oxirlarida musiqa ijrochilik amaliyotida milliy an'anaviy cholg'ularimiz, jumladan, nay, surnay, qo'shnay, karnay, bulamon, chang, qashqar va afg'on ruboblari tanbur, dutor, do'mbira, g'ijjak, sato, qayroq, safoil, doyra kabi cholg'ular mustahkam o'rin oldi. SHuning bilan bir qatorda cholg'u asboblarining mohir ustalari (Abdusoat dutorchi, Abduqodir naychi, Ahmadjon qo'shnaychi, Usta Usmon Zufarov, Ro'zimatxon changchi, Usta Masaid doyrachi va changchi, Usta Olim Komilov doyrachi) etishib chiqdi. Bu san'atkorlar milliy cholg'ularimizning tuzilishini takomillashtirish va yangilarini yaratish hamda yosh iste'dodlarni tarbiyalashda katta jonbozlik ko'rsatdilar. Natijada yaratilgan yangi musiqa asboblari turmush madaniyatimizga kirib kelib ansambllar tarkibidan munosib o'rin egalladi.

XX asrning 30-yillarida o'zbek milliy cholg'uchilik tarixida yangi ijrochilik davri boshlandi. Unison (bir ovozli) shaklda ijro etilib kelinayotgan milliy musiqamiz jahon xalqlari musiqasi ijrochiligi yo'liga mos ko'p ovozli ijro shakllari paydo bo'la boshladi. Ko'p ovozli musiqa asarlarini ijro etish uchun esa milliy sozlarimizning an'anaviy turlari talab darajasida emas edi. SHundan kelib chiqib, milliy sozlarni ta'mirlash ehtiyoji tug'iladi. Bundan asosiy maqsad cholg'ularning tovush xususiyatlarini yaxshilash, ijro uchun yangi texnik imkoniyatlar yaratish, ovoz tusining nozikligiga erishish, o'n ikkita teng yarim tonliklarga bo'lingan xromatik intervallar munosabatini tekislash hamda tovushqatorni kengaytirishdan iborat edi.

1933 yil Moskvada chop etilgan yirik musiqashunos olim, professor V.M.Belyaevning "O'zbekiston musiqa asboblari"<sup>6</sup> kitobida yozilishicha, o'zbek xalq cholg'ularini rekonstruksiya qilish va Ovro'pa nota yozuvi asosida o'zbek musiqa cholg'ularining standart tuzilishini ishlab chiqishni taklif qiladi.

CHolg'u asboblarining ta'mirlanishi davrning tabiiy ehtiyoji bo'lib, birinchidan, ilgari nota asosida bo'lmagan ijrochilikning akademik usulini joriy etishni, ikkinchidan faqat yakka tartibdagi ijro uchun emas, balki ansambl va butun boshli ko'p ovozli orkestrlar tuzishni, uchinchidan musiqa ta'limoti va tafakkurini yangilashni boshlab berdiki, xalq musiqalari ijrosidagi tor milliy doiradan chiqish imkoni yaratildi.

O'zbek xalq cholg'ulari ko'p va xilma - xil bo'lganligi uchun ularni qayta ta'mirlash nihoyatda murakkab va uzoq davom etgan jarayon bo'ldi. Bizgacha etib kelgan an'anaviy cholg'ularning o'rniga, ijrochilikning nozik va yuksak badiiy talablariga javob bera oladigan yangi, zamonaviy cholg'ular yaratila boshlandi. Bu ishga birinchilardan bo'lib, XX asrning 20-30 yillarida musiqa cholg'u asboblarini yangilashga kirishgan toshkentlik mashhur musiqa cholg'ulari ustasi usta Usmon Zufarov (1892-1981) dutor, g'ijjak, tanbur kabi musiqa cholg'ularining turdosh oilalarini yaratishga, Matyusuf Xarratov hamda usta Ro'zmat Isaboevlar tomonidan esa chang soziga qo'shimcha torlar o'rnatilib, ovoz jarangdorligini kengaytirishga erishildi.

<sup>5</sup> Одилов А. Ўзбек халқ чолғуларидида ижрочилик тарихи. Т., "Ўқитувчи" 1995. 19-21-бетлар.

<sup>6</sup> Беляев В.М «Музыкальные инструменты Узбекистана», М., 1933. Гос. музиздат

XX asrning 40-yillaridan boshlab esa milliy cholg'ularimizning yangi avlodini yaratishga O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, professor Ashod Ivanovich Petrosyans rahbarlik qildi. U rus musiqa cholg'u ustalari V. Romanchenko, A.Kevxozyans, S.Didenkolar bilan hamkorlikda rus xalq cholg'u asboblarini yangilash tajribasidan kelib chiqib, milliy sozlarimizni yangilashga kirishiladi va anchagina ishlar amalga oshiriladi. Keyinchalik cholg'u asboblarini yangilash va ularni takomillashtirishga o'zbek ustalari Xirojiddin Muhiddinov (1930-1998), Abdunabi Abdug'afurov (1931), A.Tarasov (1915), V.Shtikov, M.Turdiev kabi yosh mohir ustalar ham jalb qilinadi. Ushbu yillarda cholg'u asboblarini yangilash bo'yicha maxsus tajriba ustaxonasi keyinchalik laboratoriya tashkil etiladi. Laboratoriyada ustalar tomonidan dutor va tanbur, keyinroq g'ijjak, rubob cholg'ulari shuningdek, damli sozlar ham qayta ta'mirlana boshlandi, ularning yangi avlodini yaratishga imkoniyatlar yaratildi. Bu esa o'z navbatida milliy sozlarimizda faqat milliy musiqamiznigina emas, balki professional kompozitorlar asarlarini, shuningdek jahon xalqlari musiqasini ijro etish imkoniyatiga zamin tayyorlandi.

A.I.Petrosyansning O'zbekistonda amalga oshirgan ijodiy izlanishlari natijasida cholg'ularning ovoz xususiyatlari va an'anaviy ko'rinishlari o'zgartirilib, milliy cholg'ularimiz sadosidan uzoq bo'lgan sozlarning yangi avlodi tarkib topdi. Buning evaziga o'zbek xalq madaniyati tarixida birinchi bo'lib xalq cholg'u asboblaridan ko'p ovozli orkestrni tuzishga erishildi. Akademik Qori Niyoziy aynitganidek, yangilanish bu cholg'u asboblari ovozinig eshilitish sifatini yaxshilashga imkon yaratadi hamda nota bo'yicha ijro etishni osonlashtiradi<sup>7</sup>. SHunday qilib, kuyida ko'rsatilgan o'zbek milliy sozlarining beshta mustaqil guruhdan iborat yangi takomillashgan, barcha xalqlar musiqiy asarlarini ijro etishga moslashgan cholg'ular guruhi paydo bo'ldi.

SHundan kelib chiqib, XIX asrning 30-yillarigacha bo'lgan davrni an'anaviy xalq cholg'u asboblarini tadqiq qilish davri deb hisoblasak, 30-yillardan boshlab esa cholg'ushunoslik ilmining rivojlanish davri deb izohlash mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akbarov I. Musiqa lug'ati. Toshkent: "O'qituvchi", 1997. -384 b.
2. Abdullaeva S. Sovremennye azarbaydjanskije muzikalnye instrumenty. – Baku: Azerneshr, 1984. – 96 str.
3. Boltazoda S.S Markaziy Osiyo madaniyatida urma cholg'ular Toshkent: "Musiqa", 2008. – 136 bet.
4. Belyaev V.M. Muzikalnye instrumenty Uzbekistana. – M.: Muzgiz, 1933. – 131 str.
5. Vyzgo T. Muzikalnie instrumenty Sredney Azii. M.: Muzyka 1980. -190 bet.
6. G'afurbekov T. Saylanma 70 "Musiqa" nashriyoti. Toshkent. 2009. – 176 bet.
7. Karomatov F. Uzbekskaya dombrovaya muzyka. – T.: Goslitizdat, 1962. – 260 str.
8. Karomatov F. Uzbekskaya instrumentalnaya muzyka. Toshkent: Iz.vo literatury i iskusstva imeni G.Gulyama, 1972. - 360 str.
9. Matyoqubov O. Maqomot. "Musiqa" nashriyoti. Toshkent, 2004. – 400 bet.
10. Matyakubov O. Farabi ob osnovax muzyki Vostoka.- T.: Izd.vo literatury i iskusstva imeni G.Gulyama, 1986. – 206 str.

<sup>7</sup> Қори Ниёзов Т. Совет Ўзбекистони маданияти очерки Т., 1955.